



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАТЦИЈАЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил–10 июнь

Бухоро - 2023

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2023 йил – 10 июнь

Бухоро - 2023

~ 2 ~

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2023 йил 10 июнь** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГИ ДАВРГАЧА)** мавзусидаги халқаро микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор	О.Х.Ҳамидов
Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, физ-мат ф.д (DSc), проф	Т.Ҳ.Расулов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири	Ф.У.Темиров
Бухоро давлат университети профессори, тарих фанлари доктори	И.С.Иноятов
Бухоро давлат университети профессори, тарих фанлари доктори	Ш.А.Ҳайитов
тарих фанлари номзоди, доцент	М.Б.Қурбонова
тарих фанлари номзоди, доцент	М.И.Ниязова
тарих фанлари номзоди, доцент	Ф.Ҳ.Бобожонова
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	И.Н.Наимов
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	А.Ҳ.Болтаев
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси	О.И.Ражабов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси	Ш.Ў.Носиров

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2023 йил 15 майдаги
7 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгар*

қатағонидан қутилиб чиқишга муваффақ бўлади. Бироқ, Ниёз Ражабзода 1941 йил декабрда Муҳаммедов қори Босит яна 4 нафар сафдоши билан қамоққа олинади. Бу вақтда оила аъзолари сифатида турмуш ўртоғи Муҳтарам Ражабзода ва бир ёшли қизи Назираҳонларнинг номлари ҳам қайд этилган. 1942 йил 11-17 ноябрда уларга нисбатан отув ҳукми эълон қилиниб, кейинроқ 10 йиллик меҳнат тузатиш лагери билан алмаштирилди. Шу тариқа ажойиб педагог олим, таржимон, пулицист, муסיқашунос Ниёз Ражабзода ҳам шўро тузумининг қатағон сиёсати қурбонлари қаторидан ўрин олди...

YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA YANGI ISH O'RINLARINING TASHKIL ETILISHI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
BuxDU dotsenti, t.f.f.d. (PhD),
Muxamedjonova Marjona Azamatjon qizi
Buxoro Davlat Universiteti iqtidorli

talaba Vobkent tumanidagi to'quv fabrikani qurilish ishlarida butun tuman aholisining hissasi qo'shilgan. 1981-yil sentabr oyidan fabrika uchun keltirilgan mashina va uskunalarni hamda to'quv dastgohlarini o'rnatish ishlari boshlangan. 1982-yil Buxoro to'qimachilik kombinatining Vobkentdagi filialida 560 dona to'quv dastgohlari to'liq o'rnatilgan. To'quv fabrikasi yonida mexanika va asbob-uskuna zavodi, umumiy ovqatlanish boshqarmasi ishga tushirilgan. 1982-yil Vobkent to'quv fabrikasining ochilish marosimida respublikaning birinchi rahbari Sh.R. Rashidov qurilish ishlari bilan tanishib ochilish marosimida qatnashgan va nutq so'zlagan Vobkent tumani xalqining to'qimachilik sanoati rivojiga qo'shgan hissalar alohida ta'kidlab o'tilgan.

1980–1982-yillarda Vobkent to'quv fabrikasining qurilish ishlariga bevosita rahbarlik qilgan Davirov Shukrullo Norovich fabrika ish faoliyatini boshlashi bilan direktor vazifasiga tayinlangan. Dastlab fabrika bir smenada yilning oxirida ikki-uch smenada ishlay boshlagan. Fabrikada 450 dan ortiq yigit-qizlar ish bilan ta'minlangan.

To'quv fabrikasining janubiy tomonida Vobkent ip-yigiruv fabrikasi qurilishi rejalashtirilgan¹¹¹⁵ bo'lib, fabrika ishchi va xizmatchilar uchun 24 ta xonadonga mo'ljallangan ikki qavatli uy hamda 10 ta xonadon uchun uylar

Hamdamov Hazrat Saidovich direktorlik (1987–1991 yy) davrida Vobkent to'quv va ipyigiruv fabrikalarida ishchilar soni qisqa vaqt mobaynida ikki barobardan oshgan va 1000 dan ortiq yigit-qizlar mehnat qilganlar. Fabrikada paxta tolasidan ip yigirilib va to'qilib yarim tayyor mahsulot sifatida Buxoro to'qimachilik kombinatiga tayyor mahsulot holiga keltirish uchun yuborilgan¹¹¹⁶.

¹¹¹⁵ Vobkent tuman davlat arxivi, 157 - fond, 1 - ro'yxat, 1038 - yig'ma jild, 376 – 377 - varaqlar.

¹¹¹⁶ Muallifning S.N Ergashev bilan shaxsiy muloqoti. 2022-yil 2-fevral. ¹²⁸⁷ Ражабов Қ.Р., Рашидов У.Р., Рашидов О.Р. Ёиждувон тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016. – Б. 40. ¹²⁸⁸ Muallifning S. Ravshanova bilan shaxsiy muloqoi. 2021-yil 10-aprel.

Buxoro to'qimachilik kombinatining filiali G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasining qurilish ishlari 1981-yilda boshlanib, hunarmand va to'quvchilarning markazlaridan biri bo'lgan¹²⁸⁷. G'ijduvon aholisi zich yashaydigan hudud hisoblanganligi sababli viloyatning asosiy transport qatnovi iqtisodiy mintaqasi va tarixiy-geografik hududi bo'lgan joy tanlangan.

Qurilish ishlari bilan bir qatorda ip-yigiruv fabrikasi uchun malakali kadrlar tayyorlash ishlari ham olib borilgan. G'ijduvon shahar markazidagi 100-sonli kasbiy ta'lim maktabida yigiruv guruhi talabalari olgan bilimlarini amalda qo'llash uchun Buxoro to'qimachilik kombinatida amaliyotni o'tab, mahoratini oshirgan.

Davlat rahbari Sh.R. Rashidov 1983-yili qurilish ishlari bilan tanishgan va ochilish marosimida qatnashib nutq so'zlagan. G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi qurilish ishlarida 1981– 1983-yillarda 900 dan ortiq quruvchilar ishlagan¹²⁸⁸.

Talab va ehtiyojga qarab Buxoro to'qimachilik kombinati o'z hududlarini tumanlarda kengaytira boshladi. Qorako'l tumanida ip-yigiruv fabrikasi qurilishi rejalashtirildi. Qorako'l tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, paxta tozalash zavodi dastlabki sanoat korxonalaridan hisoblangan. 1985-yilda Qorako'l paxta tozalash zavodining ishga tushganligiga 87 yil bo'lgan.

1885-yil Buxoro amirligi davrida bu yerdan temir yo'lining o'tishi bilan taraqqiyot ham kirib kelgan. 1898-yil paxtani qayta ishlash sanoati Qorako'l da ishga tushirilgan. Aynan, shu kabi jihatlar ham hisobga olinib, Qorako'l tumani ip-yigiruv fabrikasi uchun tanlangan.

1989-yilda Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida ip-kalava ishlab chiqarish hajmi 39,8 foizni tashkil etgan, Olot to'quv fabrikasida o'zlashtirilishi 42 foizga yetgan, bu esa o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past bo'lgan¹¹¹⁷. 1990-yil 5-aprelda Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi yig'ilishida uch navbatdagi ish jarayonini topshirishda nazorat ishlari olib borilmaganligi uchun yigiruv sex boshlig'i G. Ro'ziyev vazifasidan chetlashtirilgan, yordamchisi J. Qurbonovga hayfsan berilgan¹¹¹⁸. Albatta, bu Qorako'l ip-yigiruv fabrikasida tartibsizliklarni oldi olinishiga qaratilgan samarali ishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, 1990-yil ish unumini oshirishda belgilangan rejani ortig'i bilan bajargan 13 kishiga jamg'arma hisobidan 15 va 20 so'mdan jami 240 rubl mablag' bilan rag'batlantirilgan¹¹¹⁹. 1990-yil dekabr oyida moliyaviy mustaqillikka erishishi munosabati bilan Qorako'l ip-yigiruv fabrikasi iqtisodiy yengilliklarga erishgan. Shunga qaramasdan, rejalar fabrika ixtiyori bilan tuzilmagan, qancha ip-kalava kerak bo'lsa shuncha mahsulot yetkazish uchun harakat qilishlari kerak bo'lgan.

Aholini ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1987-yillarda 500 kishi 1990-yillarda 600 kishi ish bilan ta'minlangan. Uzoqdan qatnaydiganlarga avtobuslar tashkil etilgan. To'rtta avtobus fabrika ishchilariga xizmat qilgan. Ip-kalavani Buxoro shahriga yetkazib berishda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida Olot to'quv fabrikasini tashkil etishga kirishilgan. Qorako'l va Olot tumanida yetishtirilgan

¹¹¹⁷ Районнинг тўнғич sanoat korxonasi. (Олот тўқув фабрикаси тўғрисида) // Янги ҳаёт, 9 октябрь 1992 йил

¹¹¹⁸ Qorako'l tuman davlat arxivi, 223 - fond, 1 - ro'yxat, 47 - yig'ma jild, 137 - varaq.

¹¹¹⁹ Qorako'l tuman davlat arxivi, 223 - fond, 1 - ro'yxat, 37 - yig'ma jild, 138 - varaq. ¹²⁹² Muallifning Sh.H. Abdullayev bilan shaxsiy muloqoti. 2022-yil 23-avgust.

пахта navining sifati jahon bozorida xaridorgirligini hisobga olib, Olot tumanida to'quv fabrikasi ishga tushirilishi tezlashtirilgan¹²⁹².

Olot to'quv fabrikasi 1987-yil avgust oyida to'qimachilik mashinalari to'liq ishga tushirilib, foydalanishga topshirilgan. Ko'plab olotlik yigit-qizlarga yengil sanoatga doir kasb hunarlar o'rgatila boshlangan. Fabrika ma'muriyati va ishlab chiqarish binolari bilan yonmayon ishchilar istiqomat qiladigan to'rt qavatli turar-joy binosi qurilishi tezlashtirilgan.

Xulosa o'rinda qayd etish kerakki, tumanlarda tashkil etilgan to'quv, yigiruv fabrikalarida G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l va Olot tumani fabrikalarda rejani ortig'i bilan bajarish uchun uch smenada tun-kun ishlar amalga oshirilgan.

Ishchilar soni ko'payib ishsizlikka barham berilgan. Ish unumi yuqori bo'lishi uchun to'qimachilik sanoati dastgohlari va kadrlar bilan ta'minlash masalasida jiddiy yuksalishlar qilinishi lozimligiga ahamiyat berilgan.

БУХОРО РЕСПУБЛИКАСИ ПРОКУРАТУРАСИ ТАРИХИДАН АЙРИМ ЛАВХАЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ)

*Абдишукуров Бобомурод Фахриддин ўгли
Чирчиқ давлат педагогика университети
Тарих йўналиши талабаси*

Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD), dotsent v.b. O.M. Normatov

XX аср бошларида большевиклар томонидан Россиянинг бир қатор ҳудудларида, шунингдек Туркистонда ҳокимиятнинг қўлга олиниши жараёнида Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги ҳудудларида ҳам совет ҳокимиятининг ўрнатилишига қаратилган ҳаракатлар амалга оширилди. Натижада 1920 йилнинг 2 сентябрида олиб борилган ҳарбий ҳаракатлардан сўнг Бухоро амирлиги тугатилиб, унинг ўрнида 1920 йил 6-8 октябрда бўлиб ўтган I Умумбухоро қурултойи қарори асосида Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил қилинди¹¹²⁰.

БХСРда совет ҳукуматининг мустаҳкамланиши жараёнида адлия тизими ҳам ўз ваколат ва вазифаларини кенгайтириб, унинг таркибида янги бўлимлар ташкил этила бошланди. Ўша даврга оид манбаларда кўрсатилишича, қатор юқори давлат органларининг ўз вазифаларини суистеъмол қилинаётгани аниқланиши натижасида БХСР Марказий Ижроия қўмитасининг қарорига кўра нозирлик таркибида 1922 йилнинг 21 ноябрида прокуратура бўлими фаолияти йўлга қўйилди¹¹²¹. Қарорда прокуратура зиммасига зудлик билан давлат бошқаруви органлари томонидан қонунлар бузилиши ҳолатларини аниқлаб, уларга тегишли чоралар кўриш тўғрисида алоҳида кўрсатма берилди¹¹²².

Большевиклар бошчилигидаги совет ҳукумати БХСРда ўз бошқарув аппаратини мустаҳкамлаш учун прокуратуранинг мавқеини ошириш ва шунингдек, улардаги ходимлар сонини кўпайтириш зарурлигини яхши тушунар эди. Шу мақсадда

¹¹²⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 130.

¹¹²¹ ЎзМА, Р-47-фонд, 1-рўйхат, 502-иш, 157-варак.

¹¹²² ЎзМА, Р-48-фонд, 1-рўйхат, 82-иш, 199-варак.

Рахмонов Камол Жамолович	ДЎСТОНА ВА ЯХШИ КЎШНИЧИЛИК АЛОҚАЛАРИ: МАНБАЛАР ТИЛГА КИРГАНДА	658
А.А. Кабыл М.У. Турадилов	ОТКОЧЕВКА КАЗАХОВ В УЗБЕКИСТАН (1920 – 1930 ГГ.) КАК ПОСЛЕДСТВИЕ СОВЕТСКОЙ РЕПРЕССИВНОЙ ПОЛИТИКИ В КАЗАХСТАНЕ	660
Бахром Ирзаев	НИЁЗ РАЖАБЗОДА	665
Utayeva Feruza Xolmamatovna Muxamedjonova Marjona Azamatjon qizi	YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA YANGI ISH O'RINLARINING TASHKIL ETILISHI	670
Абдишукуров Бобомурод Фахриддин ўғли	БУХОРО РЕСПУБЛИКАСИ ПРОКУРАТУРАСИ ТАРИХИДАН АЙРИМ ЛАВХАЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ)	672
Utayeva Feruza Xolmamatovna Bahodirova Mohlaroyim	BUXORO IP-YIGIRUV FABRIKASIDAGI SHART- SHAROITLAR	675
Абдуллаева Дилфуза	СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА БУХОРО МЕЪМОРИЙ ОБИДАЛАРИГА БЎЛГАН МУНОСАБАТ	677
M.B.Siddiqov	РАНИМА ALIMOVA — FELDSHER, INSTRUKTOR VA HAMSHIRA	680
Шамсиева З.А	BUXORO VOHASI NIKON TO'YI MAROSIMLARI TASNIFI XUSUSIDA	682
Murodova Dilrabo	XX ASRNING 20-30 YILLARIDA BUXORODA XALQ MAORIFI TIZIMI	685
Davlatova Shoira	SOVET HOKIMIYATINING BXSR XALQ TA'LIMI SOHASIGA OID DASTLABKI HUIJATLARI	688
Шотемирова Азиза Усаровна	ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ ТОМОНИДАН СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДАГИ ЎзССР ДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН АГРАР СИЁСАТИ	691
Hayitov Sh.A. Artikov Z.Z.	TURKISTON ASSRDAGI QOCHOQLAR VA BXSR FUQAROLARINING EVAKUATSIYA QILINISHI TARIXIGA DOIR (ARXIV HUIJATLARI ASOSIDA)	694
Sharipov Rustam	XX ASRNING 40-50 YILLARIDA BUXORO SAN'AT MAKTABI FAOLIYATI	697
Жўраев Шерали	БУХОРО МУЗЕЙИ АРХЕОЛОГИК КОЛЛЕКЦИЯСИНИНГ ЯРАЛИШИ	699
Мухторзода Киромиддин Тоҷиддин	АМАЛИШАВИИ НИЗОМИ СЕГОНАИ ҲУҚУҚИ ДАР ДАВЛАТДОРИИ БУХОРО	701
Очилова Гулмира Мардоновна	XX АСР БОШИДА БУХОРО МАТБУОТИ (“БУХОРОИ ШАРИФ” ВА “ТУРОН” ГАЗЕТАЛАРИ МИСОЛИДА)	705
Шодмон Воъидов Гулнари Шарифова	РЕМЕСЛА И РЕМЕСЛЕННИКИ БУХАРЫ В «ВОСПОМИНАНИЯХ» САДРИДДИНА АЙНИ	708
Пардаев Асрор	ЎРТА ОСИЁ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ИҚТИСОДИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАРИНИНГ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	717
Мавлуда Абдусаматовна Рахмонова	ФИТРАТ САФДОШИ, М. МАХСУМОВ ИЗДОШИ	721
Мавлуда Эркин кизи Рахманова	СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ТОМОНИДАН БУХОРО ВИЛОЯТИГА МАЖБУРАН КЎЧИРИЛГАН ХАЛҚЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА ХЎЖАЛИК ҲАЁТИ МАСАЛАСИ (1937-1953 йй.)	727
Шохжахон Рашидов	БУХОРО САРЧАШМАЛАРИДАН ҚУВВАТ ОЛИБ...	731
Турсун Хазретали Батырбеккызы Гаухар	НАЗИР ТОРЕКУЛОВ – ОРГАНИЗАТОР НАЦИОНАЛЬНОГО ИЗДАТЕЛЬСКОГО ДЕЛА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ СОВЕТСКОГО ОБРАЗЦА	736